

XORAZM MA'RIFATPARVARI VA DAVLAT ARBOBI BOBOOXUN SALIMOVNING HAYOT YO'LI

*Xorazm viloyati Yangibozor tuman
1-son texnikumi tarix fani
o'qituvchisi **Tursinboyev Diyorbek***

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlari Xorazm vohasi ijtimoiy-siyosiy hayotida tub burilishlar, uyg'onish va jadidchilik harakatining shakllanish davri bo'ldi. Bu davrda millat taqdiri, uning ma'naviy va siyosiy erkinligi uchun kurash maydoniga chiqqan siymolar orasida Bobooxun Salimov alohida o'rin tutadi. Dastlab an'anaviy diniy muhitda voyaga yetib, yuqori diniy unvonlarga ega bo'lgan B. Salimov keyinchalik mintaqada demokratik tamoyillarni joriy etish, xonlik tuzumini isloh qilish va xalqning huquqiy-ijtimoiy ahvolini yaxshilash yo'lida fidokorona xizmat qildi. Uning hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati faqatgina o'z davrining emas, balki bugungi kun davlatchilik tarixi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bobooxun Salimov 1877-yilda Xiva xonligida, o'z davrining taniqli ulamosi, keyinchalik xonlikning qozikaloni bo'lgan Muhammad Salim oxun oilasida to'ng'ich farzand bo'lib dunyoga keldi. Unga niyat qilinib, bobosining ismi — Muhammad Karim deb ism qo'yilgan edi. Shu sababli dastlab oilada, keyinchalik esa xalq orasida erkalatilib Bobojon (Xorazm shevasida Buvajon) ismi bilan atala boshlandi.

Yosh Muhammad Karim dastlabki boshlang'ich saboqlarni o'z oilasida, otasi Muhammad Salim oxundan oldi (bu davrda otasi muftiy lavozimida faoliyat yuritardi). Keyinchalik u Xivaning mashhur oliy madrasalarida tahsilini davom ettirdi va o'zining tirishqoqligi, iqtidori tufayli juda yoshlik davridanoq madrasalarda dars bera boshladi — ya'ni oxunlik darajasiga yetishdi.

Olimning yoshligidanoq ilmda peshqadam bo'lganini uning otasi Muhammad Salim oxunning xotira kundaligidagi mana bu qaydlar ham isbotlaydi:

“Hijriy 1307-yilda (milodiy 1890-yil) “Madrasai oliy”dan mudarris haqi uchun yigirma olti botmon bug'doy olduq, yana o'n botmon bug'doy olduq, yana Bobo uchun o'n botmon bug'doy olduq, va Jumaniyoz uchun o'n botmon bug'doy olduq, yana o'zimiz qirq besh botmon bug'doy olduq...”

Ushbu hujjatdan ko'rinadiki, Bobooxun Salimov hali o'smirlik chog'idayoq (taxminan 13 yoshida) madrasada mudarrislik qilib, haq olgan. Aynan yoshligidan dars berib, oxunlik qilgani uchun xalq o'rtasida ismi "Bobooxun" bo'lib ketgan va tarixda shu nom bilan muhrlangan. Bobooxunning o'z kundaligida ham: *“Hijriy 1327-yil (milodiy 1909-yil) tarixinda yasovulboshi “oqo”ning madrasasidin mudarris haqi uchun o'n olti yarim bug'doy oldik”*, degan qaydlar mavjud bo'lib, u keyinchalik

Qozikalon va Muhammad Aminxon kabi yirik madrasalarda ham mudarrislik faoliyatini muvaffaqiyatli davom ettirgan.

Xiva xonligining boshqaruv tizimida diniy va huquqiy lavozimlar juda yuqori mavqega ega edi. Xonlikda 12 nafar muftiy, a'lam, qozi-o'rda, qozi askar va qozikalon oliy diniy-huquqiy idorani tashkil etgan. XIX asr oxiridan boshlab Shayx ul-islom lavozimi alohida joriy qilinmay, uning vazifalari "A'lam-eshon" yoki "Qozikalon" zimmasiga yuklatilgan edi.

Menejment va huquq borasida chuqur bilimga ega Boboovun Salimov otasi Muhammad Salim oxun qozikalonlik qilgan davrda (1900–1916) unga yaqin ko'makchi — kotib va noyib (yordamchi) bo'lib xizmat qildi. Bu davr uning davlat boshqaruvi va huquqiy munosabatlarni chuqur o'rganishida katta amaliy maktab bo'ldi.

Taniqli tarixchi olim, falsafa doktori Umid Bekmuhammadning 2022-yilda chop etilgan "Xorazmlik jadidlar. Boboovun Salimov" nomli ilmiy-ommabop risolasida qiziqarli bir fakt keltiriladi. Unga ko'ra, rossiyalik mashhur sharqshunos olim Samoylovich 1902 va 1908-yillarda Xorazmgakelganida, Boboovun Xivada talabalarga saboq berayotgan taniqli mudarris bo'lgan, biroq o'sha paytda ular bevosita uchrashgani haqida ma'lumotlar saqlanmagan.

1916-yilda otasi vafot etgach, xonlik qozikalonligiga Xudoybergan oxun Nizomiddin xatib o'g'li tayinlanadi. Boboovun Salimov esa otasi tomonidan barpo qilingan Ichan qal'adagi "Qozikalon" madrasasida mutavallilik (boshqaruvchilik) vazifasini bajaradi, shuningdek, eng nufuzli dargoh — Muhammad Aminxon madrasasiga mudarris va muftiy lavozimlariga loyiq ko'riladi.

Boboovun Salimov faqat diniy arbob bo'lib qolmasdan, dunyoviy va demokratik o'zgarishlar tarafdori edi. U Xorazmda shakllangan taraqqiyparvar jadidlar — "Yosh xivaliklar" harakatining yetakchilaridan biriga aylandi.

1917-yilning 5-aprelida Xiva xonligida tarixiy voqea yuz berdi: xonlikni konstitutsiyaviy-monarxiya va demokratik parlament asosida boshqarishni ko'zda tutgan "Idorai mashruta" (Majlisi mabuson) majlisi tuzildi. P.Yusupovning 2000-yilda nashr etilgan "Yosh xivaliklar tarixi" nomli xotira asarida yozilishicha, Boboovun Salimov qozi va ulamolar tomonidan muxtor vakil etib saylangan. Uning yuksak obro'si sababli vohanining boshqa hududlariga ham vakillar chaqirish xatlari aynan Boboovunning maslahati bilan yuborilgan va majlis a'zolari bir ovozdan Boboovun Salimovni ushbu parlament (kengash) raisligiga saylashgan.

Biroq, bu demokratik harakat uzoq yashamadi. Boboovun Salimov keyinchalik Rossiyaga qilgan elchilik safari davomida taqdim etgan "Butun Rossiya mamlakatining xalq komissarlariga doklad" nomli ma'ruzasida o'sha mudhish kunlarni shunday xotirlaydi:

“Asfandiyorxon o‘z dushmani xon Junayid bilan ham do‘stlashib, toza barpo bo‘lg‘on hurriyat va “Idorai mashruta”ni buzub, xarob etmak uchun kecha va kunduz tinmay ishlab, oqibat uch, to‘rt oy ichida mustahkam bo‘la olmag‘on yosh hurriyatni yiqib, “Majlisi mabuson”ni tarqatib, “Yosh xivalilar” va “Majlisi mabuson” vakillarining hamma mol va asbob va yerlarini talon va taroj etib, bir qanchasini o‘ldirdi...”

1920-yilda Xiva xonligi ag‘darilib, Xorazm Xalq Sho‘rolar Jumhuriyati (XXShJ) tuzilgach, Boboovun Salimov yangi hukumat tarkibida faol ish boshladi. U o‘zining huquqiy bilimi, adolatparvarligi va xalq orasidagi nufuzi sababli respublikaning bir qancha yuqori davlat lavozimlariga, jumladan, Adliya noziri (vaziri) va oliy sud organlariga rahbar etib tayinlandi.

1920–1924-yillar davomida u Xorazm o‘lkasida yangi demokratik qonunlar ishlab chiqish, mustaqillikni saqlab qolish va xalq maorifini yuksaltirish uchun kurashdi. U sho‘ro hukumatining tazyiqlariga qaramay, milliy qadriyatlar va xalq manfaatlarini himoya qilishga urindi.